



“Pensiyam nima uchun oshmadi?”

...Nega kimlarnidir pensiyasi oshdi-yu, ayrim fuqarolarniki oshmasdan qoldi? Pensiyalar qaysi mezonlar asosida oshirildi?..

2-betda o'qing



Rais ishga qaytdi

...Mahalladoshlarining ishonchi sabab ish boshlagan rais dekabr oyi boshida ayrim fuqarolar bilan yuzaga kelgan kelishmovchilik tufayli ishdan bo'shash to'g'risida ariza yozgan...

4-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
14-FEVRAL
SESHANBA

No 06 (1366)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

Ruboiylar

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yamonliq hargiz
Har kimki, yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,
Sen shu'lasenu ul shu'lag'a men kuldurmen.
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen.

Ko'pdin berikim, yoru diyorum yo'qtur,
Bir lahzau bir nafas qarorim yo'qtur.
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Zardlar

Tani zorimni de, gulshanda shoxi notavon ko'rsang,
Sarig' yuzumni sog'in, bog' aro bargi xazon ko'rsang.

Bormu ekin hech nima olamda hijrondin yamon,
Har nekim ondin yamonroqdur, budur ondin yamon.

Tutmag'il, ey gul, ravokim, ishqing ichra bir g'arib,
Yerga bosh qo'yg'ay xazon yafrog'i yanglig' sarg'arib.

Ko'rmas jahonda hargiz ko'nglini shod Bobur,
Topmas murodi dilni, ey nomurod Bobur.

NECHA kunki zilziladan zarar ko'rgan, og'ir musibatni boshidan kechirayotgan Turk xalqi bilan birga iztirob chekayapmiz. Tilimiz, dinimiz, dilimiz bir qardoshlarimiz, qondoshlarimiz dardiga sherikmiz, qayg'udamiz. Aslida musibat boshga tushganda insonning bardoshi, irodasi, eng muhimi, odamiylik sinovdan o'tadi.


Yetti iqlimni o'ziga maftun etgan yurt, tarixiy sultonlar yurti juda katta fojia bilan yuzma-yuz keldi. Turkiya bugun ulkan mushkulot qarshisida.

Darding dardim bo'ldi bugun,

TURKIYA!

5-betda o'qing

BUGUN— Zahiriddin MUHAMMAD BOBUR tavallud topgan kun



2 21-FEVRAL – XALQARO ONA TILI KUNI

INSONIYAT yaralibdik, jamiyat taraqqiyotida o'zaro aloqa va fikr almashish vositasi sifatida tilning o'rni katta ahamiyat kasb etib keladi. Tafakkurning ajralmas qismiga aylangan til xalqlarning bebaho boyligidir. O'zbek xalqi ham ona tilimiz orqali dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib bormoqda.

Millat tafakkurining BEBAHO XAZINASI

Har yili 21-fevral sanasi butun jahonda Xalqaro ona tili kuni sifatida keng nishonlanadi. Mazkur kunni nishonlash qarori 2000-yilda YuNESKO tomonidan qabul qilingan. Mazkur sana munosabati bilan 2001-yildan boshlab barcha davlatlarda ona tilini ulug'lashga bag'ishlab turli tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



Hozirgi davrda butun dunyo bo'yicha turli millat, elat va qabilalarga tegishli 6 mingga yaqin jonli til mavjud. Jahon tillari grammatik jihatdan, lug'at boyligi va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farq qilsa-da, ular barcha tillar uchun mushtarak bo'lgan umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi.

Qadimiy Sharq xalqlarida aloqa vositasi sifatida Xitoy tili (iyerografiya shaklda), G'arbiy Osiyoning qadimiy davlatlarida turli davrlarda shumer, akkad va oromiy tillari qo'llanilgan. Yunon tili ellinistik dunyoning, lotin tili esa turli tillarda so'zlashuvchi Rim imperiyasining umumiy tili bo'lgan. O'rta asrlarga kelib Yaqin Sharq hududida arab va fors tillari, slavyan mamlakatlarida esa qadimiy slavyan tili xalqaro til vazifasida qo'llanila boshlagan.

Tilning rivojlanib borishi yoki til-dagi o'zgarishlar zamon va davr o'zgarishining ta'sirida yuzaga kelgan. Jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida ayrim tillar o'z kuchini yo'qotib, muomaladan chiqib ketgan. Olimlarning fikricha, insoniyat tarixi davomida 9 mingga ortiq til yo'q bo'lib ketgan. Nafaqat bosib olingan hududlardagi xalqlarning tillari, balki fothilarning tillari ham yo'qolib ketgani tarixdan ma'lum. Bu borada qadimgi yunon, oromiy, lotin, sanskrit, vediy, assuriy, qadimgi fors tillarini misol keltirish mumkin.

Bugungi kunda sayyoramizda aholi eng ko'p so'zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi o'nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemis, rus va yapon tillari kiritilgan.



Dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, XI asrda yashab, ijod qilgan buyuk bobokalonimiz Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asari turkiy tili davlatlar, xususan, hozirgi o'zbek tilining shakllanishida poydevor bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Turkiy tillar fonetikasi va grammatikasiga asos solgan o'z davrining lingvistik olimi Mahmud Qoshg'ariy "Barcha fazilatlarining boshi tildir" degan so'zlarni bitgan. Yusuf Xos Hojib esa tilni bilim va aql-idrok tarjimoni, deb ataydi.



Til haqida so'z yuritilganida olimlar tomonidan Alisher Navoiy bobomizning ijodi yuksak ehtirom bilan esga olinadi. Sababi, bobokalonimiz o'z davrida bir necha tilni o'zlashtirib, ikki tilda – turkiy va forsiy tilda ijod qilgan mutafakkir olim bo'lganligi barchaga ma'lum. Sulton Husayn Boyqaro "Mir Alisher turk tilining o'lik jasadiga Masih nafasi ila jon ato etdi" deb ta'kidlagan.

Mahmud Zamaxshariy bobomiz ham tilshunoslik, leksikologiya, adabiyotshunoslik, geografiya va boshqa fih ilmlarini keng yoyishda o'z hissasini qo'shganligi va arab tili grammatikasi bo'yicha yozilgan kitobning mukammal asar bo'lganligi e'tirof etiladi. Ulug' mutafakkir olimlarimizning buyukliklari ularning ilm-fan sohasidagi ijodigina emas, bir vaqtning o'zida ular bir nechta tillarni mukammal bilganliklarida, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tilning bebaholigi va benazirligi uning milliy iftixorimiz ekanligidadir. Hozirgi o'zbek tilining davlat tili sifatida qabul qilinishida istiqbolga erishish yo'lida jonbozlik ko'rsatgan vatandoshlarimizning xizmatlari katta.



Mahmudho'ja Behbudiy maqolalaridan birida "Bizga bitta til emas, to'rtta til kerak" degan so'zlar bilan kelajak avlodni tarbiyalashda, dunyoviy ilmlarni o'zlashtirishda xorijiy tillarni ham o'rganish zarurati mavjudligi haqida aytib o'tgan.

Is'hoqxon Ibrat ham o'z davrining yetuk ma'rifatparvarlari orasida zabardast shoir, tilshunos va tarixshunos olim sifatida ajralib turgan. Ibratning ma'rifat yo'lida olib borgan sa'y-harakatlari ilk o'zbek matbaa faoliyatining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Shoir 1901-yilda arab, fors, hind, turk, o'zbek va rus so'zlaridan tarkib topgan "Lug'ati sitta-alsina" ("Olti tili lug'at") asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug'at jaddid maktablarida sharq va rus tillarini o'rganishda birdan-bir qo'llanma sifatida foydalanilgan.

Dunyodagi har bir tilning taraqqiy etishi undagi so'z yoki harflarning miqdoriga qarab emas, balki uni qanday qo'llash tartibi va to'g'ri talaffuz etilishida namoyon bo'ladi. Biz har bir tilga bo'lgan ehtiromni o'z ona tilimizga bo'lgan hurmat hissi bilan namoyon qila bilishimiz kerak. Buning uchun, eng avvalo, ona tilimizning jozibadorligini ko'rsatib bilishimiz zarur.

Xorijiy tillarni o'rganish ham davr talabi, albatta. O'zga tillarni o'rganish jarayonida ona tilimizning jozibasini ham unutmasligimiz, farzandlarimizga ona tilimizda so'zlashda ibrat bo'lishimiz zarur. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida esa ona tilimizning har jihatdan boyligini chuqur anglab, tafakkurimiz xazinasi boyib boradi. Bu esa millat va xalq sifatida salohiyatimizni yuksaltiradi.

Hamidullo MO'MINOV,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi "Inson huquqlari uyi" mas'ul xodimi

MUTAXASSIS IZOHI

KEYINGI vaqtda ayrim fuqarolarning pensiyasi oshgani, boshqalarniki esa oshmagan qizg'in muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Haqiqatan ham, nega kimlarnidir pensiyasi oshdi-yu, ayrim fuqarolarniki oshmasdan qoldi? Pensiyalar qaysi mezonlar asosida oshirildi?

“PENSIYAM NIMA UCHUN OSHMADI?”



Ushbu savollarga Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati boshqarma boshlig'i **Farrux PARDAYEV** quyidagicha izoh berdi: – Bu odatdagi, ya'ni Prezident farmoni bilan oshiriladigan pensiya miqdori ortishi emas. Bu jarayonni pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori o'zgarishi munosabati bilan pensiyalarning qayta hisoblanishi, desak to'g'ri bo'ladi.

Pensiya hisoblashning bazaviy miqdori bizda 2019-yil yanvargacha BHMning sakkiz baravari, 2019-yil yanvardan esa o'n baravari edi. Bu miqdor 2023-yil 1-yanvardan o'n ikki baravari miqdoriga oshirildi.

Bu nimani anglatadi? Sodda qilib tushuntirilganda: oldin 1 million so'm oylik olib, pensiyaga chiqqan va 2 yoki 3 million so'm oylik bilan pensiyaga chiqqan insonning pensiyasida farq mavjud bo'lardi. Ya'ni, ko'proq oylik olganlarning pensiyasi ham ko'proq bo'ladi.

Biroq pensiyani hisoblashda inobatga olinadigan ish haqi yuqori chegarasi (pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 10 karrasi – 3 million 240 ming so'm) mavjudligi sababli 2023-yilgacha 4 yoki 5 million so'm oylik bilan pensiyaga chiqqanlarning pensiyasida farq bo'lmagan. Hatto 10 million oylik olib, ko'proq soliq to'lagan fuqarolar ham 3,2 million so'm oylik olib, nisbatan kamroq soliq to'lagan fuqarolar bilan bir xilda pensiya olishgan.

Hozirda shu chegara oshirildi, pensiya hisoblash bazaviy miqdorining 12 karrasi, ya'ni 3 million 888 ming so'm etib belgilandi. Chunki ko'proq oylik olganlar davlatga ko'proq soliq to'lagan, tabiiyki, ular ko'proq pensiya olishi mantiqan to'g'ri va adolatdan bo'ladi. Hozirda ushbu qayta hisoblash natijasida 370 ming nafarga yaqin odamning pensiyasi 400 ming so'mgacha va undan ortiq miqdorga oshdi. Bu o'z navbatida fuqarolarga o'zlarining yuqori daromadlarini leqallashtirishlari uchun ham motivatsiya berishi mumkin, – deb izoh berdi mutaxassis.

**ALIMENT UNDIRISH
BELGILANDI**

“MADAD” NNTning Qo'qon shahar huquqiy maslahat byurosiga fuqaro X.M. murojaat qilib, voyaga yetmagan ikki nafar farzandi uchun turmush o'rtog'i tomonidan aliment to'lovlarini undirish masalasi yuzasidan huquqiy yordam ko'rsatishni so'radi.

Murojaatni o'rganish davomida fuqaro X.M.ning turmush o'rtog'i haqiqatan ham voyaga yetmagan ikki nafar farzandini moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlab, farzandlariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmay kelayotgani aniqlandi.

Oila kodeksining 96-moddasiga binoan ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shartligi, shuningdek, voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undirilishi belgilangan. Mazkur holat yuzasidan fuqaro X.M.ga fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudiga aliment undirish bo'yicha ariza tartibida murojaat qilishi, arizaga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar va aliment undirish to'g'risida sudga murojaat qilinganda davlat boji undirilmasligi tushuntirildi.

Bundan tashqari, ayol va uning voyaga yetmagan farzandlarining huquqiy manfaatlari sud orqali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudiga aliment undirish to'g'risidagi ariza namunasi tayyorlab berildi. Fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudi tomonidan X.M.ning voyaga yetmagan ikki nafar farzandi uchun uning turmush o'rtog'idan aliment undirish to'g'risida sudning buyrug'i chiqarildi.

**FUQARONING MEHNAT HUQUQI
TIKLANDI**

“MADAD” NNTning Yangiqo'rg'on tuman huquqiy maslahat byurosiga fuqaro A.G. murojaat qilib, ish haqini undirish masalasi yuzasidan huquqiy yordam so'ragan.

Murojaatni o'rganish davomida murojaatchi Namangan shahar 2-DIMIda mehnat faoliyatini olib borganligi, ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi xodim tashabbusi bilan bekor qilingani, lekin ish beruvchi tomonidan ish haqi to'lab berilmagani aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 110-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, mehnat shartnomasi xodimning tashabbusi bilan bekor qilinganda unga tegishli ish haqi, uning miqdori xususida nizo bo'lmasa, qonun bo'yicha yoki shartnomaga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ish beruvchini ogohlantirishi shart bo'lgan xodimga ogohlantirishiga ko'ra u ishni tashlab ketishga haqli bo'lgan kundan kechiktirmasdan, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilishi haqida ish beruvchini ogohlantirishi shart bo'lmagan xodimga ishdan ketgan kunining ertasi-dan kechiktirmasdan to'lanishi lozimligi belgilangan.

Mazkur holat yuzasidan fuqaro A.G.ga fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tumanlararo sudiga ish haqini undirish bo'yicha da'vo ariza bilan murojaat qilishi lozimligi bo'yicha tushuntirish berildi.

Murojaatchining huquqiy manfaatlari sud orqali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida uning nomidan fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tumanlararo sudiga ish haqini undirish to'g'risidagi ariza namunasi tayyorlab berilib, amaliy yordam ko'rsatildi.

Natijada fuqarolik ishlari bo'yicha Yangiqo'rg'on tumanlararo sudi tomonidan fuqaro X.M.ning foydasiga ish haqini undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilib, fuqaroning huquqiy manfaatlari tiklandi.

Abror EZOXONOV,
“Madad” NNT bosh mutaxassisi,

**BOLALAR NAFAQASI
TAYINLANADIGAN BO'LDI**

“MADAD” NNTga Zangiota tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro S.N. murojaat qilib, kam ta'minlangan oilasi uchun bolalar nafaqasi tayinlash yuzasidan huquqiy yordam so'ragan.

Murojaatni o'rganish davomida fuqaro S.N.ning vaqtincha ishsiz ekani, turmush o'rtog'ining ish haqi oilaning moddiy ta'minoti uchun yetarli emasligi aniqlandi. Oilaning qaramog'ida 3 nafar voyaga yetmagan farzand mavjudligi, murojaatchi bir necha marta bolalar nafaqasini tayinlash maqsadida ariza topshirgan bo'lsa-da, rad javobi olgani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimlari orqali aniqlash, ularga kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida gi nizomda oilani kam ta'minlangan oila deb e'tirof etish va unga bolalar nafaqasini tayinlashni rad qilish asoslari keltirilgan.

Fuqaro S.N.ga Zangiota tuman prokuraturasiga ariza bilan murojaat qilishi haqida tushuntirish berildi. Oilaning huquqiy manfaatlari prokuratura orqali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida murojaatchiga ariza namunasi tayyorlab berildi.

Natijada fuqaro S.N.ning arizasi prokuratura organlari tomonidan qonuniy tartibda o'rganib chiqildi. Mazkur oilaga kam ta'minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi tayinlash to'g'risida qaror chiqarilib, fuqaroning huquqiy manfaatlari ta'minlandi.

Shaxzod MAJIDOV,
“Madad” NNT yetakchi mutaxassisi

Kimlarga xususiy tibbiyot muassasalarida BEPUL TIBBIY XIZMAT KO'RSATILADI?



QONUNCHILIGIMIZDA ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning tibbiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ayrim toifadagi shaxslar nafaqat davlat tibbiyot muassasalarida, balki, xususiy tibbiyot muassasalarida ham bepul davolanishlari mumkin. Bu jarayon “Soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan (Adliya vazirligida 2017-yil 11-avgustda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqa-

mi 2911) amalga oshiriladi. Nizomga ko'ra, xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan aholining ayrim quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga (stomatologiya va kosmetologiya xizmatlaridan tashqari) bepul tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi “Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

Nizomga asosan xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan quyidagi toifadagi shaxslarga bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi:

– o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz ya-

shovchi keksalar;

– I va II guruh nogironlari, nogiron bolalar;

– muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar;

– ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar;

– yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;

– 1941–1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;

– 1941–1945-yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari;

– qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijtimoiy himoyaga muhtoj deb topilgan boshqa shaxslar.

Xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish uchun ularning shaxsi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga mansubligini tasdiqlovchi hujjatlari mavjudligi asos bo'ladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko'rsatiladigan bepul tibbiy xizmatlarning turlari va hajmi tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyada ko'rsatilgan ixtisosliklar doirasida tashxis qo'yish va davolash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.


Xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga bepul tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan va (yoki) xalqaro tibbiy amaliyotda sinovdan o'tgan profilaktika usullari, diagnostika va davolash standartlariga rioya qilinishi lozim.

Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Yuqoridagilarga asosan imtiyozli bepul tibbiy xizmat ko'rsatish asossiz rad etilgan taqdirda, Sog'liqni saqlash vazirligiga (1003) murojaat qilishingiz mumkin.

Akmal OCHILOV,
“Madad” NNT bosh mutaxassisi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



ANDIJON



RAIS ISHIGA QAYTDI

PAXTAOBOD tumanida yashovchi fuqaro U. Jalilov 2022-yilning may oyida o'tkazilgan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovida "Hayraobod" mahallasi raisi lavozimiga saylangan. Mahalladoshlarining ishonchi sabab ish boshlagan rais dekabr oyi boshida ayrim fuqarolar bilan yuzaga kelgan kelishmovchilik tufayli ishdan bo'shsh to'g'risida ariza yozgan. Tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i N. Xolmirzayev esa arizani o'sha kunning o'zidayoq qanoatlantirgan.

Jahl ustida shoshma-shosharlik qilgan U. Jalilov keyinchalik o'ylab ko'radi va mahalladoshlarining iltimosi bilan ishni davom ettirishga qaror qiladi. Bo'lim boshlig'i arizasi qaytarib olmoqchi ekanligini aytganda, u mehnat shartnomasi allaqachon bekor qilinishini bildiradi.


U. Jalilov ushbu holatga qonuniy yechim topish maqsadida Paxtaobod tuman adliya bo'limiga murojaat qiladi. Murojaat yuzasidan o'tkazilgan o'rganish davomida 2022-yilning 9-dekabr kuni tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i tomonidan MFY raisini lavozimidan ozod qilish to'g'risidagi buyruq qonunchilik me'yorlariga zid ravishda qabul qilinishi aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 99-moddasi birinchi qismi talabiga ko'ra xodim mehnat shartnomasini ikki hafta oldin ish beruvchini yozma ravishda ogohlantirib, bekor qilishga haqli, shuningdek, mazkur moddaning uchinchi

qismida esa ogohlantirish muddati davomida xodim bergan arizani qaytarib olishga haqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 1-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomda bo'limlarga o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish huquqlari belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ularga mahalla raislarini lavozimidan ozod qilish huquqi berilmagan.

Bundan tashqari, ushbu buyruq "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizadan o'tkazilmasdan qabul qilingan va bo'lim boshlig'i tomonidan qonunchilik talablari qo'pol ravishda buzilgan. Ushbu holatlarni bartaraf etish yuzasidan adliya bo'limi tomonidan taqdimnoma kiritilib, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'ining noqonuniy buyrug'i bekor qilinib, mahalla raisi o'z lavozimiga tiklandi.

Shavkatbek ABDURAHMONOV,
Paxtaobod tuman adliya bo'limi boshlig'i



SIRDARYO

FUQARO R. Turanova 2013-yilda Shirin shahridagi 2-umumta'lim maktabiga hovli supuruvchi vazifasiga ishga qabul qilingan. 2019-yilda tug'uruq ta'tiliga chiqib, 2022-yilda maktab rahbariyatiga ishga qaytish uchun yozma murojaat qilgan. Biroq, uning murojaati rad etilgan. Bundan norozi bo'lgan R. Turanova Shirin shahar adliya bo'limiga murojaat qiladi.



DIREKTOR XODIMNING MUROJAATINI QANOATLANTIRMADI

O'rganish davomida, R. Turanova 2019-yil 1-noyabrda shahar tibbiyot birlashmasida ochilgan kasallik varaqasi va 2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ma'muriyatining tegishli buyrug'i asosida homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqarilgani, farzandi uch yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi ta'tilida bo'lib, ishga chiqish vaqti 2022-yil 27-dekabr etib belgilangani aniqlandi.


Mehnat kodeksining 234-moddasi 5-bandida bolani parvarishlash ta'tili davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Shuningdek, ushbu kodeksning 233-moddasida ayollar homiladorlik va bola tug'ish ta'tilida bo'lganida ularga bir qa-

tor qo'shimcha kafolatlarni berilishi nazarda tutilgan.

Jumladan, ularning ish joyi saqlanadi, bu davrda ularni ishdan bo'shatish, boshqa doimiy ishga o'tkazish, intizomiy jazo qo'llash taqiqlanadi. Homiladorlik va bola tug'ish ta'tilida bo'lgan davr imtiyozli mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi.

Shahar adliya bo'limi tomonidan mazkur qonunbuzilish holatini bartaraf etish yuzasidan xalq ta'limi bo'limiga taqdimnoma kiritilib, R. Turanova o'z ishiga qaytdi.

Ikrom HAKIMOV,
Shirin shahar adliya bo'limi boshlig'i



BUXORO

BUXORO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Jondor tumanidagi "FTS" MChJ rahbarining murojaati o'rganib chiqildi.

KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVIDA QONUNBUZILISHIGA YO'L QO'YILGAN

Aniqlanishicha, Jondor tuman davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 12-maydagi buyrug'i asosan 2022-yil 12-maydan 12-iyungacha qadar "FTS" MChJda kameral soliq tekshiruvi o'tkazilgan hamda tekshiruv natijasida jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq bo'yicha 40 million 486 ming 331 so'm qo'shimcha soliq to'lovi hisoblangan.


Tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan kameral soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirishda bir qator qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgan.

Xususan, tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan kameral soliq tekshiruvda aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan qaror oradan uch oydan ortiq vaqt o'tib, 2022-yil 22-sentabrda qabul qilingan.

Holbuki, amaldagi normativ hujjatlarda soliqqa oid huquqbuzarlik to'g'risidagi dalolatnoma va kameral soliq tekshiruvining boshqa materiallari ko'rib chiqilganidan keyin natijalari o'ycha besh kun ichida soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) qo'shimcha soliqlar va penya hisoblash yoki ularni rad etishni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi.

Adliya boshqarmasining aralashuvi bilan viloyat davlat soliq boshqarmasining 2022-yil 27-dekabrda tegishli qarori bilan tuman davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 22-sentabrda soliqqa oid huquqbuzarliklar materiallarini ko'rib chiqish to'g'risidagi qarori hamda tadbirkorga qo'shimcha hisoblangan 40 million 486 ming 331 so'm soliq qarzdorligi bekor qilindi.

Anvar RAHMONOV,
Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



SURXONDARYO

SARIOSIYO tumanidagi "Solanus fresh-food" MChJ rahbarining fermer va tadbirkorlik subyektlari uchun Soliq kodeksining 428-moddasida belgilangan suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg'irlatib, diskret va boshqa) sug'orish texnologiyalari joriy etilgan o'ynig boshidan e'tiboran besh yil muddatga yer solig'idan ozod etilganiga qaramasdan, MChJning suvni tejovchi texnologiya joriy qilingan 160 gektar yer maydonida soliq imtiyozlaridan foydalana olmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganib chiqildi.


TADBIRKOR IMTIYOZ OLMAGANIDAN NOROZI



O'rganish davomida tumandagi irrigatsiya bo'limiga 2022-yilning 5-dekabr kuni talabnoma kiritilib, mazkur talabnoma bo'yicha suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari orqali sug'orish tashkil etilgan "Solanus fresh-food" MChJga tegishli 160 gektar yer maydonida fermer va tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyoz qo'llanilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Tuman adliya bo'limi tomonidan "Solanus fresh-food" MChJ murojaati to'liq qanoatlantirilib, 2020-yil uchun 36 million 255 ming 587 so'm, 2021-yil uchun 58 million 69 ming 314 so'm va 2022-yil uchun 17 million 140 ming 471 so'mlik jami 111 million 465 ming 372 so'mlik soliq imtiyozini qo'llanilib, ortiqcha undirilgan soliq to'lovlarini qaytarib berildi.

Najmiddin ESHMIRZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi



TOSHKENT

PREZIDENTIMIZNING 2018-yil 3-yanvardagi "Toshkent sharqiy aerodromi negizida fuqaro (ish) aviatsiyasining zamonaviy aeroport kompleksi qurilishi" loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Toshkent viloyati hokimining 2018-yil 10-fevraldagi 128-sonli, Qibray tuman hokimining 2018-yil 2-fevraldagi 473-sonli hamda 2020-yil 10-iyundagi 725-sonli qarorlarining 3-bandi bilan A. Qalidibayevga tegishli Tuzel qishlog'i "Tovkenttepa" mahallasida joylashgan 193-A-uy buzilgan.

BUZISH OSON, TO'LASH QIYIN...MI?

Joy qiymati zararni bozor qiymati xarajat va qiyosiy yondashuv orqali "Elektron baholash" MChJning 2019-yil 1-noyabrda ekspertiza xulosasiga asosan, 231 million 202 ming so'mga baholangan bo'lsa-da, tuman hokimligi tomonidan kompensatsiya to'lab berilmagan.

Bundan norozi bo'lgan A. Qalidibayev Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan sayyor qabul chog'ida Qibray tuman hokimligi mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini bartaraf etishda amaliy yordam so'rab murojaat qilgan. Mazkur murojaat M.Ulug'bek tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganilib, A. Qalidibayevning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Da'vo ariza qanoatlantirilib, fuqaro A. Qalidibayevning foydasiga Qibray tuman hokimligidan 231 million 202 ming so'm miqdorida kompensatsiya undirish to'g'risida sudning 2023-yil 20-yanvardagi hal qiluv qarori qabul qilindi.

Abror BERDIYEV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

Yetti iqlimni o'ziga maftun etgan yurt, tarixiy
sultonlar yurti juda katta fojia bilan yuzma-yuz keldi.
Turkiya bugun ulkan mushkulot qarshisida.

Darding dardim bo'ldi bugun,

TURKIYA!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

Bu musibatni o'zida aks ettirgan suratlar, lavhalar, xabarlar yuragimizni o'pirib yuborayapti. Bir surat sharhi: Istanbul aeroportida oyoq qo'yishga joy yo'q. Tumonat odam qayoqqadir uchish, sayohat qilish uchun emas, zilziladan zarar ko'rgan shaharlardagi qardoshlarini qutqarish, qondoshlariga yordam berish uchun navbatda turganini ko'rib, bo'g'zingga nimadir tiqiladi, tiling so'zga aylanmay qoladi. Vatanparvarlik va insoniylikning bu ko'rinishida tengsiz hamdardlikni his etasan!



Bugungi musibat nafaqat turklarning, balki yaxshilik uchun yashayotgan barcha-barchaning imtihoni. Ijtimoiy tarmoqlarda ko'rganimiz vayronalar ostida qolgan bolalarning ayanchli ahvoli, muzlagan jajji qo'lhalar, odamlarning ko'zidagi tasvirlashga kuching yetmaydigan dahshatli iztirob, o'lchab bo'lmaydigan dard. Halok bo'lganlarning ochiq ketgan ko'zlari. Yordamga cho'zilgan millionlab qo'llar, mehribonlik degan oliy bir tuyg'u... Hammasi yurakni larzaga soladigan qayg'u-g'am, alam...

Yana bir suratga qarab yurakning bir bandi uzilgandek bo'ladi: Vayronalar ostidan qutqarilgan go'dak. U hayotning bu beshafqat yoziqlarini o'qiy olmaydi, hali idrok eta olmaydi. Ammo bu surat xayolingizni ostin-ustun qilib yuboradi. Uning ota-onasi, yaqinlari tirikmi, yo'qmi buni bilmaymiz. Ammo u Ollohning marhamati bilan tirik. Yoki vayronalar ostida qolgan qizining allaqachon sovugan qo'llarini umidvorlik bilan qo'yib yubormayotgan otaning ayanchli qiyofasini ko'rib, titrab ketasan. Uning qayg'usini hech bir rangda, hech bir so'z bilan tasvirlab bo'lmaydi.

Mana bu xabar esa yana ham ayanchli. Zilziladan so'ng, qutqaruvchilar tirik qolganlarni qutqarish maqsadida vayron bo'lgan uyni ko'zdan kechirishar ekan, qulagan devor tirqishidan tanasining bir qismi ko'rinib qolgan ayolni ko'rib qolishdi. Qutqaruvchilar rahbari u yerdagi manzarani ko'rib, hayratdan yoqasini ushlab qoldi. Ayol sajdagaga egilgan holatda o'lib qolgandi. Tanasi allaqachon sovib bo'lgan ayolning bag'rida jajji bolakay yotardi. Bechora ona, bolasini himoya qilish uchun shu holda jon bergan ekan. 3 oylik go'dakni qutqarib olishdi.

Bu musibatdan o'ziga kelolmayotgan odamlar, yaqinlarini izlayotgan, qutqarish uchun chora izlayotgan, zor-zor yig'layotgan onalarning faryodi toshlarni eritadi. Bir onaizor esa tuproq ostida qolgan bolalarini qutqarolmay nola qilayapti: "Yordam beringlar, uchta bolam tuproq ostida tirik, ularning ovozi eshitayapman, ammo qutqara olmayapman. Qutqaruvchilar yetishmayapti, bolalarimni qutqaringlar, yordam beringlar!"

Bularni eshitib, ko'rib, go'yoki hayot to'xtab qolgandek, yuragining muzlab qolgandek bo'ladi.



NECHA kunki zilziladan zarar ko'rgan, og'ir musibatni boshidan kechirayotgan Turk xalqi bilan birga iztirob chekayapmiz. Tilimiz, dinimiz, dilimiz bir qardoshlarimiz, qondoshlarimiz dardiga sherikmiz, qayg'udamiz. Aslida musibat boshga tushganda insonning bardoshi, irodasi, eng muhimi, odamiylilik sinovdan o'tadi.



DUNYONING O'LMAS QADRIYATI BOR

Dunyo tajribasida og'ir kunda birini qo'llashdek ibratli maktab bor. Turk xalqiga yordamga borayotgan, beminnat yordam yuborayotgan davlatlarning mehr-oqibati, el boshiga ish tushganda qarab turmaydigan ellarning marhamati, hammasi insonparvarlik, do'stlik ifodasi, mehrning bir tolas.

O'zbekiston ham bu xayrli karvondan chetda qolayotgani yo'q. Qutqaruvchilar, qutqaruv texnikasi va insonparvarlik yordami bilan Turkiyaga yuborilgan hukumat yordamidan tashqari xalqimizning ijtimoiy yordam jo'natish harakatiga tushgani turk eli bilan bir tan, bir jon ekanligimizni his etgan xalqimizning mehr-oqibati qalbga yorug'lik bag'ishlaydi.

"Toshkent va barcha hududlarda zilziladan talafot ko'rgan turkiyaliklarga yordam yig'ilmoqda" degan e'lonlarni ko'rib, yurtidoshlarimiz qo'lidan kelgancha yordam berishga shoshayapti, topganini qardoshlarimizning dardiga malham bo'lsin deb ilinayapti. Jumladan, 8-fevraldan buyon to'plash markaziga qishki kiyimlar, chodir, generatorlar, uzoq saqlanadigan oziq-ovqat va gigiyena vositalaridan iborat ko'plab zarur mahsulotlar olib kelingan.

OGOH BO'LAYLIK!

Vayron bo'lgan shaharlarni, yer bilan yakson bo'lgan ko'p qavatli uylarni ko'rib, ko'plab davlatlar hushyor tortib qolgani aniq. Chunki keyingi yillarda shiddat bilan osmonga ko'tarilayotgan qurilish biznesining o'ziga xos "sir"lari borligini ko'pchilik yaxshi biladi.

"Balki sifatsiz qurilishlar tufaylimikan, bu ofatdan talafot va qurbonlar ko'paygani?" degan xavotirga tushasan. Kimdir "Zilzila tabiiy ofat-ku!" desa yana kimdir "Bunday paytda korruptsiyalashgan tizim va sifatsiz qurilish sabab insonlar hayoti fojiali yakun topishi mumkin," degan fikrda. Chet elda yashayotgan hamyurtimiz Yusuf Rasul esa Turkiyadagi mashhur islom olimi Mustaflo Islom o'g'lining quyidagi fikrlarini keltirarkan, uni o'qib yanada hushyor tortamiz:

"Yonma-yon joylashgan ikkita bino, yangi qurilgani qulagan, eskisi butunlay turibdi. Qulagan binodagilarning kreditlari hatto hali tugamagan, afsuski odamlar o'zlariga 100 ming dollarlik qabr sotib olishgan ekan. Buni "taqdir" deyish Allohga tuhmatdir. "Peshonaga shu yozilgan deyish" esa aybni Allohga to'hnashdir. Bu jinoyat, sifatsiz quruvchi kompaniyalarining aybidir".

Bularning barchasi vijdon va mas'uliyatni asosiy mezonga aylantirishni, ogohlilni kuchaytirishni, har qanday ochko'zlikni yig'ishtirish zarurligini taqozo etadi. Davlatimiz rahbari qurilishlardagi mavjud infratuzilмага yuklama bo'yicha aniq hisob-kitob qilinmayotgani, yashil maydonlar tashkil qilish ishlari qurilishlar bilan hamohang olib borilamayotganini tanqid qildi. Poytaxt shahar bosh rejasi tasdiqlanmaguncha yangi qurilishlarga moratoriy e'lon qilinadi.

Buyuk bir millat boshiga tushgan bu musibatni, bu ofatni xalqning irodasi, qardosh do'stlarning mehr-muruvvati, chidam va bardoshi yengishiga ishonchimiz komil! Biz Siz bilan birgamiz, qayg'ungizga sherikmiz ulug' turk eli, aziz qondoshlar!

6 MUTAXASSIS MINBARI

Mamlakatimizda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha standartlar va tabaqalashtirilgan ta'lim standartlari hamda dasturlari joriy etib kelinmoqda. Shu ma'noda aytganda, Adliya vazirligi yuridik texnikumlari boshqaruv hamda pedagog kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz oshirib borish mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, zamonaviy talablarga muvofiq yuridik texnikumlarda ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlik amalga oshirilib kelinmoqda.

MALAKA OSHIRISH KURSILARI PEDAGOGIK XODIMLAR MAHORATINI OSHIRISHDA MUHIM OMIL BO'LAYOTIR



Yuridik texnikumlarning mutaxassislik fanlaridan dars beruvchi pedagoglari Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Professional o'qitish markazining "Huquqshunos" qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida malaka oshirmoqda. Ular tomonidan malaka oshirish to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita amaliyotga joriy etilib, malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda internet axborot tarmog'i, multimedia tizimlari, masofadan o'qitish usullaridan, webinar texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanilib, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish ko'nikmalari shakllantirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2022-yilning oktabr, noyabr va dekabr oylarida jami 71 nafar pedagog xodim malakasini oshirdi. Ayni malaka oshirish kurslari Toshkent davlat yuridik universitetining professor-o'qituvchilari tomonidan ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llangan holda amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, yuridik texnikumlarning boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida yagona o'quv-uslubiy baza ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayonini sifati tashkil etishga qaratilgan metodik rahbarlik va ta'lim sifati bo'yicha ichki nazoratni amalga oshirib kelmoqda.


Shu bilan birga, yuridik texnikum pedagoglari tomonidan ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim dasturlarini doimiy yangilab borish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malakani uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq professional ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish malaka oshirishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy-pedagogik salohiyatdan kelib chiqib, malaka oshirishning kasbiy ehtiyojlarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali boshqaruv hamda pedagog kadrlarning tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malaka-viy talablar takomillashtirilmoqda. Natijada malaka oshirgan pedagog-kadrlar o'zlari ishlayotgan ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda yuqori sifatlilik dars mashg'ulotlari tashkil etilib, o'quvchilarning kerakli bilim va ko'nikmalar egallashi ta'minlanmoqda.

Kelgusida o'qituvchilarning kasb mahoratlarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini uzluksiz tashkil etish rejalashtirilgan.

Dilorom RAXIMOVA,

Toshkent davlat yuridik universitetining uzluksiz ta'lim boshqarmasi xodimi



FUQAROLIK kodeksining 5-bobida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchisi sifatidagi qoidalar keltirilgan. Kodeksning 79-moddasiga ko'ra, davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi belgilangan. Fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar. Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi.

FUQAROLIK - huquqiy javobgarlik deganda nimani tushunasiz?

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning mustaqil turidir. U mulkiy xususiyatga ega bo'lgan sanksiyalar ko'rinishida ifodalangani. Odatda, fuqarolik-huquqiy javobgarlik majburiyatlarining buzilishi natijasida vujudga keladi.

FUQAROLIK HUQUQIDA MAJBURIYAT TUSHUNCHASI

Majburiyatlar davlatga nisbatan vujudga kelishiga qarab shartnomali majburiyatlar, shartnomadan tashqari majburiyatlar (delikt majburiyat)ga ajratiladi. Delikt majburiyatlarda davlat bilvosita ishtirok etadi. Ya'ni, davlat ixtiyoriy ravishda emas, balki davlatning tegishli organi yoki mansabdor shaxsning harakatlari natijasida vujudga kelgan majburiyat yuzasidan majburiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Fuqarolik kodeksining 15-moddasiga ko'ra, davlat organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hujjat qabul qilinishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararning o'zni davlat tomonidan yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday zararning o'zni davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Davlat organi yoki fuqarolar-

ning o'zini o'zi boshqarish organi bekor qilingan, ularning mablag'lari yetishmagan yoxud davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining mablag'lari bo'lmagan taqdirda fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararning o'zni davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Zarar qaysi davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining aybi bilan yetkazilgan bo'lsa, sudning qarori bilan zararning o'rnini qoplash ushbu organlar mansabdor shaxslarining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

BOSH DELIKT TAMOYILI

"Bosh delikt tamoyili" fuqarolik-huquqiy munosabatlarida asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yetkazilgan zararning o'ziyoq yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini vujudga keltirish asosi hisoblanadi. Shu munosabat bilan jabrlanuvchi zarar yetkazuvchi harakatining huquqqa xilofligini va uning aybini isbotlashi talab etilmaydi. Bunda zarar yetkazuvchi huquqqa xilof harakat qilmaganligini va o'zining aybi yo'qligini isbotlashi shart.

Respublikamizda bosh delikt tamoyili Fuqarolik kodeksining 985-moddasida ko'zda tutilgan. Unga muvofiq, g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar,

shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Mansabdor shaxsning aybidan qat'i nazar, yetkazilgan zarar qoplanishi kerakligi Fuqarolik kodeksining 990-moddasida belgilangan. Kodeksning 991-moddasiga muvofiq, qonunga xilof tarzda hukm etish, qonunga xilof tarzda jinoyi javobgarlikka tortish, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishni yoki munosib xulq-atvorda bo'lish haqida til-xat olishni qonunga xilof qo'llash, qamoq tariqasidagi ma'muriy jazoni qonunga xilof tarzda berish natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning mansabdor shaxslari aybidan qat'i nazar, qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan to'la hajmda to'lanadi.

Davlatning fuqarolik-huquqiy javobgarligini qo'llash har doim yetkazilgan zararni qoplash va jarimalarni to'lash bilan bog'liq bo'ladi. Hatto, sodir etilgan huquqbuzarlik shaxsiy nomulkiy huquqlarga ta'sir qiladimi yoki jabrlanuvchiga jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazadigan holatlarda ham, fuqarolik-huquqiy javobgarligini qo'llash jabrlangan shaxsga tegishli pul kompensatsiyasini tayinlash orqali amalga oshiriladi.

JABRLANGAN TOMONNING MULK HUQUQI BUZILISHINI TIKLASH

Mulkiy huquqiy munosabatlarida bir ishtirokchining majburiyatlarini buzishi har doim boshqa ishtirokchining huquqlari buzilishiga olib keladi. Shu sababli, sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'llanilgan mulkiy sanksiya har doim jabrlanuvchining buzilgan huquqini tiklash yoki qoplashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Fuqarolik qonunchiligida javobgarlik mohiyatan kreditorning huquqbuzarlikkacha bo'lgan mavqeyini tiklash, buzilgan huquqlarni himoya qilish zarurati bilan bog'liqdir.

Fuqarolik javobgarligining navbatdagi xususiyati, yetkazilgan zarar yoki zarar miqdoridagi javobgarlik miqdoriga, ya'ni ushbu turdagi javobgarlikning kompensatsion xususiyatiga mos keladi. Fuqarolik javobgarligi uning kompensatsiya xarakteri bilan oldindan belgilab qo'yilgan chegaralar bilan va natijada jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar yoki zarar uchun unga teng keldigan tovon pul to'lash zarurati bilan cheklanadi. Chunki javobgarlikni qo'llashning asosiy maqsadi jabrlangan tomonning mulk sohasidagi huquqini tiklashdir.

Ayubjon ALIJONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o'qituvchisi

SUD ZALIDAN

QO'SHNING quvunch va tashvishlariga sherik bo'lish, qo'shning boshiga ish tushganda yonida turishdek azaliy qadriyatlarimiz bor. Ammo Sardor Mavlonov (ism-familiyalari o'zgartirilgan) qo'shnichilikning ana shu taomillariga rioya qilish o'rniga, aksini qildi. Qo'shni Abdurahmon aqanining peshona teri bilan bunyod qilgan bog'iga ko'z olaytirdi.

MEHNATNI BIROV,
ROHATINI BOSHQA KO'RADIMI?

Ayni shaftoli pishiqchilik payti. Yangikent qishlog'ida joylashgan dala maydonidagi dala bog'iga suv qo'ygani borgan Sardorning qo'shni daladagi shaftolizor bog'ni ko'rib xayoli buzildi. Qo'shning shaftolizoriga o'g'irlik qilib, tekin daromad o'rtirish rejasini voyaga yetmagan hamqishloqlarini ham jinoyat yo'liga kirishga majbur qildi. U maktab o'quvchilari bo'lgan Ma'ruf va Botirjonlarga "Abdurahmon aqanining shaftolilari terilmay qolib ketibdi, uvol bo'lmasin, terib olinglar deb aytgandi shunga yordam berib yuboringlar" deya yolg'on gapirib, ularni shaftoli terishga olib ketdi.

ODAM bolasining tanida umri davomida yoki bu dard paydo bo'lishi hayotiy haqiqat. Dardning ko'p turiga shifo malhamlar bor. Ammo ba'zi dardlar bedavo bo'larkan. Anvar Oripov (ism-shariflari o'zgartirilgan) ham pul dardiga yo'liqib qoldi. Dastlab 28 yoshida sudlangan Anvar keyingi 18 yil davomida besh marotaba sudlanib, ozodlikka chiqib ham qilmishlariga berilgan jazodan o'ziga xulosa chiqar-magan ekan.

PUL DARDIGA
MUBTALO
BO'LGANLAR
QISMATI

Farg'onaning Buvayda tumanida tug'ilib o'sgan Anvar 46 yoshni qoralabdi hamki, hayotda munosib yashashni o'rganmadi. Xalq orasida niholni daraxt bo'lgunicha tarbiyalab ol, degan gapni ko'p eshitganmiz. U jinoyat ko'chasiga kirib qolgach, qilayotgan jinoyi harakatlari bora-bora odat tusiga aylanib

Hali yigirma yoshga ham kirmagan bu yigit avval ham jinoyat sodir etib, muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Buvayda tuman sudining 2021-yil 26-maydagi hukmiga ko'ra, Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybli deb topilib, 1 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan. Jazoni hali o'tamay turib, yana yangi jinoyatga qo'l urdi.

Sardor jabrlanuvchi A. Qodirovga tegishli shaftoli bog'iga kirib, bog'dan har bir kilogrami 10 ming so'mdan bo'lgan 84 kilogram jami 840 ming so'mlik "nektar" navli shaftoli mevalarini 11 ta yashikka joylab, meva savdosi bilan shug'ullanuvchi fuqaro Hasan Bozorovga 588 ming so'mga sotib, pullarni voyaga yetmagan M. Xoliqulov va B. Shaxobiddinov bilan bo'lib oladi.

Bundan tashqari, S. Mavlonov o'zining jinoyi xarakatini davom ettirib, 2021-yil 24-iyul kuni yana shaftolizorga o'g'irlikka kirib, 25 kilogram mevani yashirin ravishda talon-toroj qilib, H. Bozorovga 182 ming so'mga pullaydi.

Birovning haqqi bironva hech qachon buyurmaydi, deb bekorga aytilmagan. Olib borilgan tezkor surishtiruv va qidiruv harakatlari davomida, Sardor va uning jinoyi sheriklari ushlanib, fuqaro A. Qodirovga zarar yetkazgan shaftolifurushlar sud oldida javob berdi.

Abdurahmon Qodirovga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar qoplandi. Uchko'prik tuman "Qo'qonboy" qishlog'ida joylashgan "Imkon plast" ishlab chiqarish korxonasida ishlagan S. Mavlonovning peshonasiga "o'g'ri" degan tamga bosildi. Eng achinarlisi, uning avvalgi jinoyati uchun berilgan ozodlikni cheklash jazosi endi ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirildi. O'z qilmishining oqibatini o'ylamagan yosh yigitga 3 yil 1 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Nachora, qilmish – qidirmish...

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

qoldi. O'sha kuni Anvar jinoyi sheriklari Oybek va Nurallilar Oybekning "Lasetti" mashinasida Toshkent viloyatiga kelishadi. Ular g'arazi maqsadlarini amalga oshirish uchun fuqaro Nurbek Abrorovga tegishli bo'lgan "Lasetti"ni tanlashadi. Maxsus jihazlar yordamida avtomashina eshigini ochib, uning yukxonasidan 13 million 400 ming so'm pulni olib, voqea yodidan yashirinlashadi.

Ammo ular o'zlarining maqsadlariga erisholmadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qo'lga olinadi.

Sudlanuvchi Anvar Oripov sudda aybiga to'liq iqror bo'lib, dastlabki tergovda bergan ko'rsatmalarini tasdiqladi. U o'sha kuni mahalladoshi Oybek Asrorov, jiyani Nurall Begaliyevlar bilan qasddan jinoyi harakat sodir etishganini tan oldi. Anvar sud majlisida o'ziga tayinli ish topa olmasdan o'g'irlikka qo'l urganini aytdi. Oilaviy sharoiti og'irligini, qaramog'ida keksa onasi, turmush o'rtog'i bilan voyaga yetmagan farzandi borligini aytib, sudan yengillik so'radi.

Sud majlisida jabrlanuvchi va guvohlarning ham ko'rsatmalari tinglandi. Jabrlanuvchining aytishicha, o'sha kuni u ertalab uyidagi qoramollarni bozorga olib borib sotgan. 27 million so'mlik qoramollarning pulini ikkita paketga joylab, avtomashinasining orqa yukxonasiga joylashtirib, uyiga ro'zg'or qilish uchun bozorga kirib ketadi. Bozordan chiqib qarasaki, avtomashinasi ochiq, pullar esa yo'q. Jabrlanuvchi o'sha kuni bo'lgan voqealarni birma-bir eslab, pullari o'g'irlanganini bilganidan keyin IIB xodimlariga xabar qilganini aytib, ko'rsatma berdi.

Sud hukmiga ko'ra, Anvar Oripovga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sud hukmi bilan avval tayinlangan 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmay qolgan qismini qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil 5 yil 2 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Anvar navbatdagi jazoni qattiq tartibli koloniyalarda o'taydigan bo'ldi.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
"Inson va qonun" muxbiri

E'LONLAR

"Advokatura to'g'risida"gi qonun Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan Toshkent shahridagi quyidagi shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslarning ro'yxati e'lon qilinmoqda.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya sanasi va raqami	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1.	Karimov Ulug'bek Yangiboyevich	2019-yil 14-yanvardagi TN 001852	05.01.2023, 4-um-son
2.	Amanov Nurjaxon Maxmudjanovich	2019-yil 23-yanvardagi TN 001011	10.01.2023, 10-um-son
3.	Gabdullin Nail Anisovich	2019-yil 25-yanvardagi TN 001233	10.01.2023, 10-um-son
4.	Xayrullayev Abdisamet	2019-yil 29-yanvardagi TN 000814	10.01.2023, 10-um-son

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi to'xtatib turilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Asos bo'luvchi hujjat sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1.	Usmanov Eldor Xudoyberdiyevich	2021-yil 30-sentabrdagi TN 002023	05.01.2023 4-um-son	Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining 2022-yil 1-noyabrdagi 5-1001-2201/2311-son hal qiluv qaroriga muvofiq 2022-yil 2-dekabr 2 (ikki) oy
2.	Mustayev Xusniddin Anvarovich	2022-yil 30-maydagi SI 000138	05.01.2023 4-um-son	Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining 2022-yil 15-noyabrdagi 5-1001-2204/2553-son hal qiluv qaroriga muvofiq 2022-yil 16-dekabr 15 (o'n besh) kun
3.	Xayitov Marat Ergashevich	2019-yil 18-martdagi TN 000348	05.01.2023 4-um-son	Toshkent shahar ma'muriy sudi apellatsiya instansiyasining 5-1001-2204/2434-son qabul qilingan ma'muriy ish yuzasidan 2022-yil 19-dekabr 2-611/22-son qaroriga muvofiq 2022-yil 19-dekabr 3 (uch) oy
4.	Qazaqov G'olib Hazratqulovich	2022-yil 13-iyuldagi TN 002252	05.01.2023 4-um-son	O'lt tuman prokuraturasining 2022-yil 21-dakabrdagi 15/31n-22-xabaronasiga ko'ra, sud hukmi qonuniy kuchsiga kirgungacha qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoyi javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi qaror qabul qilunguniga qadar

"Advokatura to'g'risida"gi qonun Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan quyidagi shaxslarning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan hamda to'xtatib turilgan shaxslarning ro'yxati e'lon qilinmoqda.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya sanasi va raqami	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1.	Xodjayev Valisher Ganisherovich	2019-yil 26-avgustdagi TN 001551	26.01.2023, 28-um-son
2.	Kurbanova Mavluda Shukuraliyevna	2018-yil 29-dekabrda TN 000350	26.01.2023, 28-um-son
3.	Muxamedkulov Jasurbek Murodjonovich	2019-yil 11-yanvardagi TN 000572	26.01.2023, 28-um-son

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Asos bo'luvchi hujjat sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1.	Abduvaliyev Ravshanbek Abduvohidovich	2021-yil 7-iyuldagi TN 001958	26.01.2023 28-um-son	2023-yil 9 yanvardan 3 oyga

"Advokatura to'g'risida"gi qonun Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risidagi nizom hamda Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 60-son qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomga asosan quyidagilarning ilovaga muvofiq advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya sanasi va raqami	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1.	Sharipova Mulabar Sattorovna	2018-yil 19-dekabrda SA 000016	29.11.2022, 473-um-son
2.	Soxibov Xasan Sottiyevich	2013-yil 26-iyuldagi TN 001689	29.11.2022, 473-um-son
3.	Mavlyanov Baxodir Raxmatuliyevich	2019-yil 4-martdagi TN 001439	29.11.2022, 473-um-son
4.	Maxkamov Abdullaxil	2018-yil 29-dekabrda TN 000419	29.11.2022, 473-um-son
5.	Sharabiddinov Sherzod Ulugbekovich	2019-yil 1-martdagi FE 000262	29.11.2022, 473-um-son

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi to'xtatib turilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Asos bo'luvchi hujjat sanasi va raqami	To'xtatib turish muddati
1.	Tangibayev Xusanjon Furkatovich	2019-yil 16-maydagi TN 001499	23.11.2022 464-um-son	Litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi sud hukmi qonuniy kuchsiga kirgungacha qadar yoxud reabilitatsiya qiluvchi asoslarga binoan uni jinoyi javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilunguniga qadar to'xtatildi

Advokatlik maqomi to'xtatib turilgan shaxslar

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya sanasi va raqami	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1.	Xalimova Jamila Yevkochdiyevna	23.11.2022, 464-um-son	o'qish davriga
2.	Otaboyev Jasur Xakimjonovich	23.11.2022, 464-um-son	ish davriga
3.	Ibragimova Shaxnoza Ulkurovna	23.11.2022, 464-um-son	ish davriga

8 INTERVYU



SIRDARYO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Yanvar oyining eng yaxshi xodimi", deya e'tirof etilgan huquqiy xizmatlar bo'limi boshlig'i Bobur NARBAYEVga yettita savol:

"Hayot bugundan iborat emas!"

– Ish faoliyatingiz haqida qisqacha ma'lumot

– Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining "Xalqaro huquq" yo'nalishini 2019-yilda tamomlab, ish faoliyatimni Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasining ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'limida boshladim. Bugungi kunda boshqarmaning huquqiy xizmatlar bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat yuritib kelayapman. Ish faoliyatim notariat, advokatura, yuridik xizmat va huquqiy ekspertiza yo'nalishlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

– Qo'liga kiritgan yutuqlaringiz haqida bilishni istardik.

– Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi va uning tuzilmalarida "2022-yilning eng yaxshi xodimi", 2021- va 2023-yillarda "Yanvar oyining eng yaxshi xodimi" bo'lish nasib etgan. 2020-yilda viloyat

adliya boshqarmasi tomonidan "Faxriy yorliq" bilan taqdirlanganman.

– Ishdan bo'sh vaqtlaringizni qanday o'tkazasiz?

– Ishdan bo'sh vaqtlarimda rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchilik amaliyotini o'rganib, O'zbekiston qonunchiligiga tatbiq qilish yuzasidan qonunlar ishlab chiqishni yaxshi ko'raman. Bundan tashqari, oilam davrasida bo'lib, teatr, konsertlarga tushib, madaniy dam olamiz.

– Sevimli mashg'ulotingiz?

– Sport bilan shug'ullanish, suzish va shaxmat, kitob o'qish eng sevimli mashg'ulotim.

– Yaxshi ko'rgan asaringiz haqida ikki og'iz...

– O'zbek adiblaridan Pirmqul Qodirov va O'tkir Hoshimov asarlarini sevib mutolaa qilaman. P. Qodirovning "Avlodlar dovoni" romanini 3 marotaba o'qib chiqqanman. Ushbu roman menda xayolot mahsuloti emas, aynan tarixda bo'lgan voqealar asosida yozilganligi, Humoyun Vatanga sadoqat, oliyjanoblik, mardlik hamda har qanday qiyinchilikka tik qarab, uni yengish kabi jihatlari bilan alohida taassurot qoldirgan.

– Hayotdagi shioringiz?

– Faqat bugun bilan yashama, chunki hayot bugundan iborat emas!

– Yurist bo'lmaganingizda qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?


– Bolalikda inson o'zini har xil kasbda tasavvur qiladi. Dastlab iqtisodchi bo'lishni orzu qilganman, keyinchalik detektiv asarlarni katta qiziqish bilan o'qiganligim uchun huquqshunos bo'lish istagi paydo bo'lgan. Albatta, bu tanlovim hayotimdagi eng to'g'ri tanlov deb hisoblayman.

– Omad hamisha Sizga hamroh bo'lsin!

"Inson va qonun" muxbiri Marusa HOSILOVA suhbatlashdi



O'TGAN yili "The New York Times" gazetasi asli kelib chiqishi Yaponiyadan bo'lgan Mitio Kakuni Nyu-Yorkning eng aqlli odamlaridan biri deb topdi. U fizik olim bo'lib, koinotning kengayib borishi va "qora tuynuk"lar bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazdi.



Mitio KAKU:

"Insoniyat juda katta o'zgarishlar ostonasida turibdi"

U fanni ommalashtirish faoli sifatida nom qozongan. Uning "Iloji yo'q narsaning fizikasi", "Superstrun nazariyasiga kirish", "Kelajak fizikasi" singari kitoblari rus tiliga tarjima qilingan. BBC va "Discovery"da turkum ko'rsatuvlar tayyorlagan. U dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarida maxsus ma'ruzalar o'qiydi. Asarlari o'nlab tillarga tarjima qilingan. Mitio Kaku "Vlast deneg" nashriga kelajak ta'limi qanday bo'lishi haqida so'zlab berdi.

(Quyida suhbatdan kichik bir parchani e'tiboringizga havola etaman).

... Mitio Kaku:

– Eng asosiysi – o'qish endilikda eslab qolishga tayanmaydi. Tez orada Google Glass kompyuterlari va ko'zoynaklari barcha zarur axborotni yuklab oladigan jajji linzalar ko'rinishida bo'ladi. Xuddi shunday funksiyaga ega ko'zoynaklar yaratildi. Shu bois, ikki yillar orasida maktab o'quvchilari va talabalar imtihon payti kerakli ma'lumotni internetdan izlab topib, gapirib berishlari mumkin – bu uchun ko'zlarini bir yumib ochishsa bo'lgani: barcha kerakli ma'lumotlar ko'z oldilarida namoyon bo'ladi.

Bu bir tomondan miyani keraksiz axborotlar bilan to'ldirishning oldini oladi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, inson miyasi hayoti davomida kerak bo'lmaydigan keraksiz ma'lumotlar bilan to'la. Ikkinchi tomondan esa, miyada ochilgan joy yoki "bo'sh qolgan aqliy xazina" o'ylash, tahlil qilish, kerakli argumentlarni to'plash va oxirida yagona to'g'ri qarorni qabul qilishga yo'naltiriladi.

– Bunaqada, imtihon va o'qituvchiga zarurat yo'qoladi – shundaymi?

Mitio Kaku: – Xuddi shunday. Biz o'z hayotimiz uchun butun mas'uliyatni o'zimiz o'z bo'yini-mizga oladigan bo'lamiz, "nazorat

organi" kerak bo'lmay qoladi, biz "avtonom" ish ko'rish ko'nikmasiga ega bo'lamiz. Odamlar o'z-o'ziga ta'lim bera boshlaydi, inchinun qaysi bilimlar unga zarur ekanligini hisobga olgan holda. Mabodo, maslahat kerak bo'lib qolsa, uni odamlar "aqlli devor"dan oladi. Juda tez orada sun'iy intellektga asoslangan qurilmalar barcha joylarda: xonadonlar, ofislar va ko'chalarda joylashtiriladi. Devorga yaqinlashib: "Men biologiya professori bilan gaplashmoqchiman" desangiz shuni o'zi yetarli. Darhol devorda professor paydo bo'lib sizga kerakli ma'lumotni beradi. Bunday tizim faqat ta'limda emas, boshqa sohalarda: tibbiyot, huquqshunoslik, dizayn, psixologiyada ham qo'llaniladi. Albatta real mutaxassislar ham kerak bo'ladi, masalan xirurglar, ammo ko'pgina muammolar virtual o'z yechimini topadi. O'qituvchilar masalasiga kelsak, ular "tiriklayin" kerak bo'lmisligi aniq.

... Qisqasi, bilim olishning miqyoslari juda kengayib ketadi. Odamlar yashaydigan muhit tubdan o'zgaradi. Jamiyat tovar-mahsulot iqtisodiyotidan intellektual-ijodiy iqtisodiyotga o'tadi.

Rus tilidan Jaloliddin SAFOYEV tarjimasi

88 OGOH BO'LING!

NOXUSH HOLATLARNING OLDINI OLISH QIYIN ISH EMAS. AMMO...

XALQIMIZDA "O't balosidan asrasin!" degan qadim ibora bor. Haqiqatan ham, olov – tilsiz yov. U ho'lu quruqni bab-baravar yondiradi. Bu yil qish mavsumining sovuq kelishi yong'in bilan bog'liq fojialarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Siqilgan gaz ballonlarning o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazilmaganligi, yosh bolalarning nazoratsiz qoldirilishi, elektr simlaridagi kuchlanish natijasida yashash xonadonlarida yong'inlar kelib chiqmoqda. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan keng qamrovli profilaktik tadbirlar o'tkazilayotganiga qaramasdan, noxush holatlar qayd etilmoqda.

Masalan, 2022-yil davomida Bo'ston tumanida 23 ta yong'in sodir bo'lgani qayd etilgan. Yong'in sabablari tahlil qilinganda, qasddan o't qo'yish – 3 tani, elektr jihozlardan o't chiqishi – 10 tani, iqtisodiy pechlaridan yong'in chiqishi – 3 tani, bolalar sho'xligi tu-

foyli – 5 tani va boshqa turdagi yong'inlar – 2 tani tashkil qilganini ko'rish mumkin.

2022-yildagi raqamlar 2021-yilga nisbatan ancha oshganini izohlaydigan bo'lsak, fuqarolarning o'z mol-mulkiga e'tiborsizligi oqibatida favqulodda vaziyatlar soni oshgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va is gazidan zaharlanish hamda havo-gaz aralashmasidan sodir bo'ladigan chaqnash kabi noxush holatlarning oldini olish katta mehnat yoki ortiqcha sarf-xarajat talab qilmaydi. Ammo so'nggi pushaymon va zaramning o'rmini qoplash esa ancha qimmatga tushishi aniq.

Har qanday noxush holatlarning oldini olish o'zimizga bog'liqligini unutmang!

Alimardon SHOKIRJONOV, Bekzod VALIJONOV,

Bo'ston tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0001-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2310-7497

472002940008

**Bosh
muharrir**
Asiddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

**Muzraf Ikramov
Eldor Maxkamov
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rinboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva**

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida. 2 bosma tabaq hajmda. ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze. Yangi shaxar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj: – 3876
Buyurtma – 419

Toshirish vaqti: – 19:00
Toshirildi: – 20:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-85

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5